

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

OGAHIY DAVRI SHOIRLARI IJODIGA BIR NAZAR

Xamdani-Zoda Leylo Xasanovna,
*TDSHU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida
katta o‘qituvchisi*

Tojiboyeva Feruza Usmon qizi
Sharq filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada serqirra ijodkor Ogahiyning yashagan davri, ilmga berilgan e’tibor va uning zamondoshlarining hayot yo‘li, faoliyati keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Munis lirikasi, Bayoniyning tarixiy asarlari, Ogahiy merosi, Muhammad Rahimxon Soniy, Xivadagi adabiy muhit, tadqiqotlar.

Annotation: In this article, the life and activities of prominent composer Ogahiy during the period, as well as the attention given to him by scholars, are vividly depicted.

Key words: Poems of Munis, Bayoniy’s historical works, Ogahiy’s legacy, Mukhammad Rakhimxon Soniy, literary environment in Khiva, studies.

Аннотация: Данная статья посвящается жизненному пути и деятельности современников известного писателя Огахи.

Ключевые слова: лирика Муниса, исторические произведения Баяни, наследие Огахи, литературная среда Хивы, исследование.

Qalbi pok inson har doim quyoshga talpinadi, adabiyot bilan do‘st tutinadi. Buning bir qancha sabablari bo‘lib, biri adabiyot ummonida so‘z bilan yo‘g‘rilgan shunday ajib bir tuyg‘ular ifodalanishiki, inson qalbining tub-tubiga yetib boradi. Bunday kitobxonning qalbini “jiz” etishiga sabab bo‘ladigan, ko‘nglini to‘ridan joy oladigan asarlarni esa faqatgina asl ilm ahli yoza oladi. Shu paytgacha, XXI-asrgacha ne-ne olim-u fozillar, fuzaylo-yu daholar yashab o‘tdi. Tarix qancha buyuk insonlar bilan ro‘baro keldi, lekin tarix zarvaraqlarida faqatgina ijod uchun ijod qilgan shoir-u ilm ahli qoldi. Shunday insonlar Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Lutfiy, Jomiy, Ogahiy, Munis va boshqalardir. Bir shoirning yetishib chiqishi, ijod qilishida davr masalasi juda muhim sanaladi. Ogahiy, Munis, Bayoniy kabi serqirra shoirlarda ham davr masalasi muhim ahamiyat kasb etgan.

“Bu atoqli ijodkorlarimizning vatani bo‘lmish Xorazm qadim zamonlarda O‘rta Osiyoning eng yirik markazlaridan biri bo‘lgan. Professor S.P.Tolstov va professor Ya.G‘.G‘ulomov uzoq vaqt tekshirishlar olib borib, Xorazmning qadim zamonlarda boy madaniyatga ega ekanligini yetarli dalillar bilan isbotlab berdilar. Professor Ya.G‘.G‘ulomov o‘z asarida bunday deb yozadi: “Xorazmda dehqonchilikning yuqori madaniyati juda qadim zamonlarda sun’iy sug‘orish asosida vujudga kelgan va xuddi Misr, Mesopotamiya hamda sharqning boshqa mamlakatlaridek taraqqiy

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

etgan”. Xorazmda fanning buyuk siymolari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, mashhur ensiklopedist olim Abu Rayhon Muhammad al-Beruniy, Allomayi Zamaxshariy kabi olimlar, shoirlar, tarixchilar, adiblar yetishib chiqqan.”¹.

Xorazmdagi siyosiy muhitni yaxshilash uchun xalq farovonligi, yurt obodonchiligi, ilm-fan, madaniyat, saroydagi ijodiy safni yanada kengaytirish yo‘lida har bir taxt tepasiga kelgan xon bosh qotirgan bo‘lsa-da, ularning harakati samarasiz kechgan ya’ni juda katta yutuqlarga erishilmagan. Podshoh oqil vazir bilan ikki karra kuchlidir deganlaridek, Muhammad Rahimxonning olib borgan siyosati o‘z “meva”sini bera boshlaydi. Xiva tarixida Muhammad Rahimxon davrida boshqalardan o‘laroq ijodga, ilm-ma’rifatga jiddiy qarala boshlandi, madrasalar, xonaqohlar qurilishi ko‘paydi. Oqil Munis o‘z atrofida ilmga chanqoq toliblarni to‘playdi. Uning ijodi o‘zgacha bir tarovati bilan insonni o‘ziga chorlaydi, ajralib turadi. O‘sha davrda, xonlikda saroydagi lavozimlar avloddan avlodga qolgan va shu tariqa zanjir bo‘lib lavozim egasi tayinlanib ketilgan. Munisning ota-bobolari saroyda miroblik ishlari bilan shug‘ullangan.

K.Munirov o‘zining asarida Munisning hayoti, ijodi haqida mufassal ma’lumot berar ekan, quyidagi ma’lumotlarni ham keltiradi: “XVIII asrning 2-yarmi va XIX asrning boshlarida Xorazmda yashagan Amir Avazbiy o‘g‘li Shermuhammad (adabiy taxallusi Munis) atoqli tarixchi, iste’dodli shoir hamda ko‘zga ko‘ringan davlat arbobi edi. O‘zbek adabiyotining taraqqiyotida va o‘zbek xalqlari tarixini yoritishda uning xizmatlari nihoyatda katta. Munis o‘zbek tilida ajoyib adabiy va tarixiy asarlar yaratdi va fors tilidagi ko‘pgina tarixiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qildi. Munis 1778-yilda tug‘ilgan”². Munis tabiatan tirishqoq, ilmga chanqoq bo‘lgani uchun yoshligidan adabiyot bilan, she’riyat bilan do‘st tutindi. Munis tarixchi va shoirlar asarlariga muhabbat qo‘yib zo‘r ishtiyoq bilan o‘qiydi. U “Firdavs ul-iqbol” asarida o‘zining yoshligini, o‘sha davr muhitini ajoyib tarzda tasvirlaydi. Afsuski, Munis bu asarni oxiriga yetkaza olmay, yo‘lda vabo kasalligidan vafot etadi. Lekin o‘sha paytdagi Olloqulixon uni jasadini olib keltiradi va o‘z o‘sgan shahri Qiyotga dafn ettiradi. Munis o‘z davrining eng aziz kishilaridan bo‘lgan, hattoki Munisning o‘limi Olloqulixonni ham qattiq iztirobga slogan. Bu asari Odam ato yaratilishidan tortib, Qo‘ng‘irotlar sulolasigacha bo‘lgan tarixni aks ettiradi. Ogahiy bu asarni davom ettirib yakuniga yetkazadi. Bu asar haqida gapirganda asarni Ogahiy qalamiga mansub, hammuallifdagi asar deb ataymiz.

¹ Q.Munirov. Ogahiy, Munis va Bayoniyning tarixiy asarlari. – Toshkent: 1960. – 5-6-betlar.

² Q.Munirov. Ogahiy, Munis va Bayoniyning tarixiy asarlari. – Toshkent: 1960. – 14-bet.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Munis shoir sifatida ko‘pgina she‘rlar yozib qoldirgan. Uning she‘rlari o‘zi tomonidan 1813-yil to‘planib, devon tartibiga keltirilgan va bu devonga u “Munis ulushshoq” deb nom bergan. Vengriya akademiyasi a‘zosi A.Vamberi 1863-yili Tehrondan chiqib, Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘i bo‘ylab Xiva, Buxoro va Samarqandga qilgan sayohati vaqtida Xivada Munis asarlari bilan tanishadi va uning shoirlik qobiliyatiga qoyil qoladi. “Bizning tarixchimiz Yevropaga ham ma‘lumdir. Vengriyalik olim Vamberi Sharqshunoslarning VIII kongressi munosabati bilan chig‘atoy tilida yozgar she‘rida Munisning quyidagi she‘rini keltiradi:

“Darveshligim chog‘ida anda kezarkan,
Xorazm jamolin ko‘zum-la ko‘rarkan,
Pisandida ko‘rdumki, Munis shoir zamon,
Xorazm madhin shundoq etti bayon:
“Bosh ko‘kka chekib Hisor, Xorazm,
Olamg‘adur iftixor Xorazm.
Firdavs barin nasimidin dam,
Har lahza urar bahor Xorazm.
Dar maxzani ilm maxzaridir,
Har maxfiyu oshkor Xorazm.
Ma‘murai Hindu chin savodin,
Hijolatg‘a solib diyor Xorazm³.”

Xorazmda ana o‘sha paytda qalami o‘kir tarixchi, yozuvchilardan biri Bayoniy edi. Feruzshoh taxallusi bilan ijod qilgan Muhammad Rahimxon II davrida Bayoniy, ham Ogahiy xon homiyligida badiiy tarixiy asarlar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Ko‘pgina tarjima qilingan asarlari ham Feruzshoh talabi bilan amalga oshirilgan. Bayoniy asarlari o‘zining haq so‘zini qo‘rqmay ayta olishligi bilan diqqatga sazovordir. Bir so‘z bilan aytganda, Bayoniy El dardini kuylaydi. “Har qismatga har kimning davroni sabab she‘r un cheksa, shoirning armoni sabab bo‘lg‘ay”, - degan edi O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov. Muhammad Yusuf Bayoniy 1840-yilda Xivada amaldor oilasida tug‘iladi. Avvaliga ta‘limni o‘z uyida oladi, so‘ngra Sherg‘ozixon madrasasida o‘qiydi. Uning otasi ham she‘riyat oshnosi bo‘lgan, ko‘p adabiy kechalar uyushtirib turgan, o‘zi ham she‘rlar yozgan. Otasining ismi Bobojonbek bo‘lib, Eltuzarxonning nabirasi bo‘lgan. Muhammad Rahimxon Soniy taxt tepasiga kelgach, shoir ahllarini saroyga yig‘a boshlaydi. Tabiiyki, bu majlislarga

³ Q.Munirov. Ogahiy, Munis va bayoniyning tarixiy asarlari. – Toshkent: 1960. – 17-bet.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Bayoniy ham bora boshlaydi. Olgan ilmlarini boyitib, yanada takomillashtiradi. U xattotlik san’atini ustasi bo‘lgan bir qancha xat turlari, suls, kufiylarni nafislik bilan bita olgan. Zamondoshlari uning har sohadan xabardor bo‘lganini aytib, musiqa ilmidan ham xabari borligini, tanbur va g‘ijjakni yaxshi chalganidan hattoki qushlar nag‘ma qilishini aytganlar. Bayoniyning tarixiy mavzularda yozilgan “Shajarai Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” kabi asarlari bor.

“Bayoniyning 173 sahifadan iborat kulliyotida 178 g‘azal, 45 muxammas, 1 mustazod, 10 musaddas, 2 musabba, masnaviy, ruboiy, tarjiband, qit‘a va bahri tavil joylashgan. Asarlarga qo‘yilgan sarlavhalar qizil, matn esa qora siyoh bilan, oq-sariq fabrika qog‘oziga chiroyli nastaliq xatida bitilgan. Har bir g‘azal muallifning taxallusi bilan yakunlangan”⁴. G‘azal Bayoniy lirikasida yetakchi o‘rinda turadi. Shoir dilkash g‘azallar orqali muhabbatga sadoqat, insonlararo mehr-shafqat, do‘stlik, oliyhimmat bo‘lishlik, insonparvarlik, hayotsevarlik kabi g‘oyalarni ilgari surgan. Muhammad Yusuf (1840)ning o‘ziga “Bayoniy” taxallusini tanlashda biror bir yashirin ma’no bordek. Uning asarlariga nazar solar ekanmiz, har bir so‘zni shunday ochiq-oydin tushuntiradiki, muammoli, ya’ni tushunarsiz hech qanday jumla, ma’no qolmaydi, ya’ni qalbiga haqdan kelgan har bir so‘zi ravshanbayondir, so‘zda ravshanbayondir.

Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan shajaraviy tarixnavislik bor. Bu chashmaning boshida Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy turadi. Ulardan qolgan muqaddas tarix kitoblarining qimmatini juda baland. Bularga Markaziy Osiyo tarixining zukko bilimdoni V.V.Bartold yuqori baho berib, ulargacha mukammal tarix bitilmaganligini ta’kidlaydi. Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” nomli asarlari Xorazm va Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, XIX asr Xorazm adabiy muhitini o‘rganishda juda nodir manbadir. Bayoniy o‘z salaflari izidan borib, badiiy ijod bilan shug‘ullanibgina qolmay, Munis va Ogahiy yaratgan asarlardagi voqealarni qaytadan yozdi, to‘ldirdi, o‘z davri voqealari asosida tarixning yangi sahifalarini bunyod etdi⁵. Bayoniyning forsiy asarlarining o‘zi bir olam. Eng ulug‘ shoirlarimiz Lutfiy, Uvaysiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab, Nodira, Munislar o‘zbek va forsiy tillarda ijod qilganlar. Adabiyotga nazar tashlasak, fors-tojik tilida ijod qilmagan shoir, shoiralarni uchratish qiyin. Bayoniy ham o‘z ajdodlariga munosib holda bir-biridan ajoyib zullisonaynlik qobiliyatidan foydalanib ijod qilgan, she’rlar bitgan. Xorazm tarixini mufassal tasvirlagan, xalq ma’rifati uchun doimo jon kuydirgan shoirlardan yana biri Ogahiydir. Fatxulla G‘anixo‘ayev o‘z asarida: “Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy XIX asr o‘zbek adabiyotining yirik

⁴ N.Jumaxo‘ja. I.Adizova. So‘zdan baqoliroq, yodgor yo‘qdur. – Toshkent: 1995. – 14-bet.

⁵ N.Jumaxo‘ja. I.Adizova. So‘zdan baqoliroq, yodgor yo‘qdur. – Toshkent: 1995. 21-bet.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

namoyondasi va o‘sha davrda Xorazmda vujudga kelgan adabiy harakatning ilg‘or vakilidir. Ogahiy o‘zining yuksak iste’dodi sermahsul ijodi bilan, zabardast olim, talantli shoir, yetuk tarixchi, mohir tarjimon sifatida adabiyotimizda tarixida alohida o‘rin tutadi”⁶. Ogahiy 1809-yili Xivaning Qiyot qishlog‘ida tug‘iladi. Otasi Erniyozbek Mirob bo‘lib ish yuritgan. Otasi vafot etgach, amakisi va o‘z davrining jamoat arbobi bo‘lgan Munis qo‘lida tarbiya topadi. Tengqurlaridan zehni o‘tkirligi, xulqi bilan ajralib turgan ogahiyning Munis yoshligidanoq Navoiy asarlari bilan do‘stlashtirdi. Ogahiyning Munis qo‘lida tarbiya topishi uni saroydagi ilmiy suhbatlardan bahramand bo‘lish uchun ajoyib sharoit yaratadi. Bundan foydalangan Ogahiy tezda ijodga sho‘ng‘ib ketadi. Tezda lirik asarlari bilan shuhrat topa boshlaydi.

Ogahiyning lirik merosi o‘zbek va fors tillarida yaratilgan “Ta’viz ul-oshiqin”, ya’ni “Oshiqlar tumori” va “Ash’ori Forsiy” devonlarida jamlangan bo‘lib, 22 janrga oiddir. Bular orasida g‘azal, muxammas va ruboiy asosiy o‘rinni egallaydi, 84 ta muxammasning 31 tasi Navoiy g‘azallariga bitilgan bo‘lib, bu hol Ogahiyning Navoiyga bo‘lgan ehtiromidan bir nishona. Ogahiy she’riyatda o‘zgacha adabiyotimizda mavjud deyarli barcha janrlarga murojaat etgan, ularni davr talablari asosida mazmunan boyitib, shaklan takomillashtirdi⁷. Ogahiy o‘zbek adabiyotida muxammas janrining va taxmisning asoschisi sifatida tan olinishi ham tasodifiy emas. Ogahiy shular bilan cheklanib qolmay, tarjimachilik sohasida ham qalam tebratgan. Dunyodagi eng dong‘i ketgan asarlarni nasriy va nazmiy usulda tarjima qilgan. Nazmiy tarjimalariga “Yusuf va Zulayho”, “Shoh va gado” asarlari kirs, Mirxondning “Ravzat us-safo” asari nasrning yorqin namunasidir. Ogahiy bu asar ustida 20 yildan ortiqroq mehnat qilgan. Xususan, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye” asarlarini ham mahorat bilan tarjima qilgan.

Ogahiy Hindistonda hokimlik qilgan podsholardan Muhammadshoh Avrangzeb zamonida yashagan olimlardan Muhammad Vorisning “Zubdat ul-hikoyat” nomli asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Ogahiy, shuningdek, Kaykovusning o‘z o‘g‘li Gilonshoh uchun yozgan tarixda mashhur bo‘lgan “Nasihatonoma” yoki “Qobusnoma” deb ataluvchi asarini ham o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar 44 bobdan iborat bo‘lib, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hikoyalardan iboratdir. Ogahiy yana Muhammad Maxdiy Astobodiy tomonidan yozilgan “Tarixi Nodiriy”

⁶ F.G‘anixo‘jayev. Ogahiy asarlarining tavsifi. – Toshkent: 1986. 7-bet.

⁷ F.G‘anixo‘jayev. Ogahiy asarlarining tavsifi – Toshkent: 1986.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

nomi bilan yuritiladigan asarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar Nodirshohning (1736-1747) hukmronlik qilgan davridagi tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi⁸.

Ogahiy qay sohada ijod qilmasin go‘zallikka talpinadi.

Ogahiy go‘zallikka alohida ahamiyat beradi. Goh ijtimoiy hodisalar, goh tabiat o‘zgarishi, goh kishilardagi alohida fazilat, husni tavajjuh- bularning hammasi Ogahiy tanlagan estetik go‘zallikdir⁹.

Har bir davr adabiyoti o‘zining bir ahamiyatli tomoni bilan ajralib tursa, Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlari o‘z davrini haqqoniy aks ettirganligi, har ne yozsalar ham u haqiqat bo‘ladimi yoki shirin yolg‘on-barini ochiqchasiga aytganliklari bilan ahamiyatlidir. Shu sabablardan kelib chiqib, ularning nafaqat tarixiy, balki badiiy asarlari ham o‘z davrining, balki butun insoniyatning nodir boyligidir. Xulosa qilib shuni ayta olamizki, bizning oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri bu asarlarni puxta o‘rganish, tanishib chiqishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Munirov. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. – Toshkent: 1960.
2. Nusratillo Jumaxo‘ja. Iqboloy Adizova. So‘zdan baqoliroq, yodgor yo‘qdur. – Toshkent: 1995.
3. Fatxulla G‘anixo‘jayev. Ogahiy asarlarining tavsifi. – Toshkent: 1986.
4. Ogahiy abadiyati. – Toshkent. 1999.
5. Q.Munirov. Ogahiy. – Toshkent. 1959.
6. Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon. “Meros” nashriyoti. 1999.

⁸ Q.Munirov. Ogahiy. – Toshkent: 1999. – 12-bet.

⁹ Atoqli, Shoir, Tarixnavis, Tarjimon. “Meros” nashriyoti. – 1999. – 48-bet.